

“UYG‘OTUVCHI ALLA” She’riy To‘Plami Va Undan Joy Olgan “SEN KELGAN KUN” She’ri Haqida

Hasanova Xayrixon Fazlidinxonovna¹

Annotatsiya: Mazkur maqolamizda shoira Guljamol Asqarovaning “Uyg‘otuvchi alla” she’riy to‘plamidagi she’rlar va to‘plamdan joy olgan “Sen kelgan kun” haqida yozilgan she’rning badiiy tahlili haqida bayon qilinadi.

Kalit so‘zlar: To‘rtlik, gul, atirgul, oshiqlik-ma’shuqlik, hijron, firoq, visol, baxt.

Guljamol Asqarovaning “Uyg‘otuvchi alla” she’riy to‘plami 2007-yil “Sharq” nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyatida nashr etilgan.

To‘plam quydagi besh bo‘lim asosida shakllantirilgan:

I.Faqat sevgi haqida;

II.Yuragim tomonlarda;

III.Mening ikki qo‘rg‘onim;

IV.Vatan deya yuksalar ruhim;

V.Bolalikning moviy osmoni.

I. “Faqt sevgi haqida”gi bo‘lim tarkibida quydagi she’rlar jamlangan:

“Muhabbatning sharti”, “Ertak”, “Rashk kasali”, “Sen kelgan kun”, “Qadri tugagan sevgi”, “Men va sen”, “Bir qadam”, “Orzu”, “Dugonamga xat”, “Intiqommi...”, “Qachondir”, “Adashgan mehr”, “Ey ko‘ngil...”, “Mensiz”, “So‘nggi so‘z”, “Men bir kun...”, “Kuyarmish ko‘rgan ko‘ngil...”, “San o‘zing...”, “Mehribon jallodim”, “Meni kechir”, “E’tirof”, “Sizga”, “Yaxshi bo‘ldi...”, “Qahraton”, “Yomg‘irli kun”, “Baxt dastxati”, “Duo”, “Vido”, “Qahratonday...”, “Arzi hol”, “O‘zim”, “Izhor”, “Tomirimda gul oqadi...”, “Munchoqlarim”, “Oshiq xayoli”, “Sevgi izhorlarin...”, “Maktub”, “Dilo ketdik...”, “Netay yorim...”, “Ishqi jonimdan o‘tganning...”, “Iqror”, “Sariq gullar”, “Turnalar yo‘li”, “Qarovsiz ishq”, “Xazonchehra”, “Hargiz ismimni...”, “Umri davonimda...”, “Bir yor topsak edi...”, “Kuzgi gul”, “Xavotir”, “Axir nega...”, “Shafqat fasli”, “Chorlov fasli”, “Vido fasli”.

II. “Yuragim tomonlarda” bo‘limidan joy olgan she’rlar:

“Munojot”, “Isyon va itoat”, “Yaxshisi”, “Yo‘q”, “So‘rov”, “Men dunyoga...”, “Yillardirki”, “Endi”, “Ey Xudoyim”, “Men”, “bahodir Yo‘ldosh”, “Suxandon ayol ta’rifi”, “Chin do‘stimga”, “Do‘stim ketdi...”, “Samarqand va Qo‘qon”, “Bevafo do‘st”, “Yolg‘iz”, “Amaldorlarga”, “Hazil she’r”, “Tavba”, “Savol-javob”, “Qarz”, “Nika Turbina”, “Yurtim haqida”.

III. “Mening ikki qo‘rg‘onim” bo‘limidan joy olgan she’rlar:

“Dahshatli haqiqat”, “Taskin”, “Iltijo”, “Haykal”, “Shoirning onasi”, “Ota duosi”, “Ikki qo‘rg‘on”.

IV. “Vatan deya yuksalar ruhim” bo‘limidan joy olgan she’rlar:

“Ota, she’r azobi...”, “Kelinchak orzusi”, “Qishloq ayollariga”, “O‘zbekiston madhi”, “Omon bo‘lsin”, “O‘zbek eli”, “O‘zga yurtda yurgan bola”, “O‘zbek bolasi”, “O‘zbekning o‘zi”, “Bizni xalq”,

¹ O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasи o‘qituvchisi



“O‘zbekiston”, “Da’vat”, “Garchi yo‘llarimga...”, “Vatan o‘g‘loni”, “To‘yxat”, “Qutlovnoma”, “Kurashlar yurtiman”.

V. “Bolalikning moviy osmoni” bo‘limidan joy olgan she’rlar:

“Bolalik va men”, “Qayerlarda qolding”, “Farzona, Noila, Shahinaning she’ri”, “Bolalarga bering dunyon...”, “Beg‘ubor kulgilar”, “Umid”, “Kecha va bugun”, “Onam bilan ko‘zim suhbatı”, “Xiyonat”, “Munojot”, “Baxshining aytgani”, “Xolos”, “Vatan va ostona”, “Ibodat” (turkum).

“Uyg‘otuvchi alla” to‘plami 2007-yilda O‘zbekiston xotin-qizlar qo‘mitasi tashabbusi bilan o‘tkazilgan “Hur o‘lka qizlari” tanlovida shoira Guljamol Asqarova birinchi o‘rinni qo‘lga kiritganligi munosabati bilan nashr etilgan.

Asarga O‘zbekiston xalq shoiri Shukrullo “She’r quvonchi” nomi bilan so‘zboshi sifatida she’rlari bilan tanishib, badiiy jihatdan tahlilini, o‘zining samimiyl fikrlarini bildirib o‘tgan.

“Bugun men, she’rlarimni qoralab qo‘yaman,

Erta ular meni qo‘yadi oqlab... ” to‘plam quyidagi misralar bilan boshlanishida shoiraning o‘ziga xosligini payqash qiyin emas, uning alohida beg‘ubor olami borligini, ya’ni ijodkor o‘zining ijodiga suyanishi, she’rlari bilan o‘zini bir butun his etishi, she’rlar uning bir qismi ekanligini, vaqt kelganda misralar u haqida so‘zlashi haqida fikr yuritgan.

Shoiraning o‘zi ham asarning “Faqat sevgi haqida” bo‘limida kitobxon uchun dil izhorlarini yozib qoldirgan. Kitobxonlarni qalban suhbatga choralagan. Birinchi bo‘lim bilan tanishib chiqsak, she’rlarning asosiy g‘oyaviy mazmuni sevgi, muhabbat, ishq haqida ekanligiga guvoh bo‘lamiz. Haqiqiy ishqqa yetishda majoziy ishqning vosita ekanligini, u orqali his etiladigan sog‘inch, mehr, hijron, visol kabi tushunchalarini badiiy ifodalagan.

To‘plamda 2006-yilda yozilgan “Sen kelgan kun” she’ri joy olgan bo‘lib, to‘rtlik shaklda yozilgan. Oshiqlik va ma’shuqlik maqomi haqida badiiy tasvir keltirilgan. Ishqning paydo bo‘lishi, hijronning og‘ir yuk, visolning esa ne’mat ekanligi, baxtning qirralarida, daqiqalarida baxtni anglash haqida falsafiy fikrlash badiiy tasvir orqali ifodalangan. Quyidagi she’rning birinchi to‘rtligida:

Sen bir quchoq gul bilan kelding,

Atirgullar keltirding menga.

Shundan buyon gulga aylanib,

Faqat borgim kelyapti senga.

Oshiq ma’shuqasi uchun bir quchoq atirgullar keltirganidan, gulning iforidan qalbi quvonchga to‘lgani, nozik mehrini payqagani, shu onda esa ma’shuqa ham atirgulga aylanib oshiq qo‘lidagi gulga aylanish istagi paydo bo‘ladi.

Bahor edi, mast edi dunyo,

Ishq faslida telbaroq edim.

Ko‘zlarimga tikilib birdam,

“Ko‘nglingizda bormanmi” deding.

Juda sodda tuyuldi bu so‘z.

Titroq ichra jilmaydim, kuldim.

“Kechirasiz men sizga emas,

Shu gullarga oshiqman” dedim.

Ikkinchi, uchinchi to‘rtliklarda oshiq va ma’shuq timsollarining o‘rin almashish hodisalari soniyalarda sodir bo‘ladi, aniqlik kiritish maqsadida kiritilgan dialoglarda obrazlar bir-biriga qalban yaqin kelish



bilan shu qatorda uzoqlashish, ishqni pinhon tutish bilan hijron darchasi ochilishiga sabab bo'lganini ko'rish mumkin.

Shundan buyon seni ko 'rmayman.

Shundan buyon ko 'zlarim kulmas.

Har yil kulib bahor kelar-u,

Lekin sening gullaring kelmas.

Ushbu to'rtlikda she'rning davomiyligini saqlagan holda ma'shuqa har bahorda sevgisining nishoni bo'lgan gullarni ko'rishni juda istashi, intizorligi, ko'zlarining quvonishi, yuragining hapqirishini istashi, lekin bahor kelishi-yu, gullarning kelmasligi, oshig'inining visolini yetmaganidan qalbi ozor chekkani haqida yozilgan.

Baxt kelsa ham sensiz kelmasin,

Biror onim o 'tmasin sensiz.

Axir umrim umr bo 'larmi,

Qaynoq sevging va gullaringsiz.

Beshinchi to'rtlikda ma'shuqa baxt nisbiy tushuncha ekanligini, jondan sevgan inson uchun baxt - suyuklisining borligi, uning kelishi, har lahza borligini his etishidir. Umr bo'yи uning gullari, gullar tutishga undagan mehrini his etishini nazarda tutgan.

Qo 'y osmonga chorlama meni,

Kuzatmagil baxt saroyiga.

Axir odam bormog 'i kerak,

Faqat ko 'ngli chopgan joyiga.

Yo 'llamagil qo 'y baxtlar tomon,

Taskin so 'zlar aytmagil menga.

Tushun, axir, gulga aylanib,

Faqat borgim kelyapti senga...

Keyingi to'rtliklarda ma'shuqa faqat ko'ngidan joy bergan insoniga ko'ngil bera olishi bilan birga o'zi ham oshiq bo'lib qolgani, "Tushun, axir, gulga aylanib, faqat borgim kelyapti senga" misralari orqali oshig'inining qo'lidiagi gullarga aylanib qolish istagi, hijronning tugashi, firoqlarning visolga aylanishini, ko'ngli undan o'zgasini seva olmasligi, ko'ngilga buyruq bera olmasligi, uning uchun baxt faqat qanday bo'lmasin, yonida bo'lish, buning uchun shartlarining mavjud emasligini ta'kidlaydi. Haqiqiy muhabbat shartlanganlikni qabul qilmasligiga ishora qiladi.

Shoiraning bu to'plami bilan tanishib chiqib, asarning o'ziga xos tartib berilganligi, she'rlarning joylashtirilishi, mavzularning rang-barangligi kitobxonga ma'naviy ozuqa bera oladi. Aynan sevgi-muhabbat mavzusidagi she'rlari insonning tuyg'ularini jumbushga keltira oladi. To'lqinlantiradi, ruhlantiradi, ayrim o'rnlarda ko'zga yosh olishga ham majbur qiladi, tuyg'ularni his etish insonni goh qomatni "alif"dek tik tutsa, goh "dol" kabi egib qo'yadi, har qancha bo'lsa ham bu sinovli dunyoda viqor bilan turishga, shahdam qadamlar tashlashga undaydi.

She'rning shakl va mazmun birligi tamoyiliga mos ekanligini, voqealarni makon va zamon birligi tamoyilida aks ettira olishi, xususiylikdan umumiylig tamoyiliga o'ta olgani tahsinga sazovordir. Kechinmalarni o'zgalarda ham ta'sir ettira olish qobiliyatini yaqqol sezish mumkin. Bu esa ijodkorning o'ziga xos qirralaridan biridir.



Foydalilanilgan adabiyot va manbalar ro‘yxati

1. Asqarova G. “Uyg‘otuvchi alla”. – Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2007.
2. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2005.
3. www.ziyouz.com kutubxonasi

